XALQ DEPUTATLARI NAVOIY VILOYATI
NAVBAHOR TUMAN KENGASHINING
Q A R O R I

2023 - yil 13 - noyabr VI-65-118-5-73-K/23 Navbahor tuman hokimligi

Tuman mahalliy budjetning 2023 yil 3-chorak daromadlar rejasini oshirilib bajarilgan qismi hisobidan mablag‘larni yo‘naltirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 24-moddasiga asosan tuman mahalliy budjetning 2023 yil 3-chorak daromadlar rejasini oshirilib bajarilgan qismi hisobidan mablag‘larni yo‘naltirish maqsadida hamda tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limining 25-oktyabrdagi 01-12-230/20-01-38/395-sonli xatiga asosan, xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi mahalliy budjetning 2023 yil 3-chorak daromadlar rejasini oshirilib bajarilgan qismi hisobidan ilovada ko‘rsatilgan budjet tashkilotlariga amaldagi budjet tasnifiga rioya qilgan holda mablag‘larni ajratilishini ta’minlasin

2. Mablag‘ ajratilgan budjet tashkilotlari rahbarlariga ushbu mablag‘larni maqsadli sarflanishini ta’minlasinlar.

3. Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi, tuman G‘aznachilik xizmati bo‘limi mahalliy byudjetining 2023 yil 3-chorak daromadlar rejasini oshirilib bajarilgan qismi hisobidan ajratilgan mablag‘larni amaldagi qonunchilik talablariga muvofiq maqsadli va samarali foydalanilishini nazorat qilsin.

4. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari M.Jumaboyev hamda xalq deputatlari tuman Kengashining doimiy komissiyalari zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **А.Ўроқов**

Xalq deputatlari Navbahor tuman
Kengashining
2023-yil 13-noyabrdagi
VI-65-118-5-73-K/23-son qaroriga
1-ilova

Navbahor tumani mahalliy budjetining 2023 yil 3-chorak yakuni bo‘yicha daromadlar rejasidan orttirib bajarilgan qismi hisobidan ajratiladigan mablag‘lar

T/p	Tashkilot nomi	Ajratiladigan mablag‘ ming so‘mda	Maqsadi	Asos
1	Tuman hokimligiga	90 000,0	Yoshlar daftariga kiritilgan yoshlarning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal etish maqsadida yoshlarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasiga	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 19.01.2022 yildagi PQ-92-son qarori
2	Tuman hokimligiga	90 000,0	Ayollar daftariga kiritilgan xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal etish maqsadida “Ayollar daftari” ro‘yhatiga kiritilgan xotin qizlarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasiga	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Prezidentining 31.03.2022 yildagi 145-son qarori
3	Tuman hokimligiga	180 000,0	Tuman hokimligi huzurida ochilgan “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 13.04.2021-yildagi PQ-5072-son qarori
JAMI		**360 000,0**	**X**	**X**